



EDUCATIONAL FUNCTIONS OF SPORT IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH NATIONAL CONSCIOUSNESS

Zohiddin Usarovich Rasulov

Associate Professor of the Samarkand Campus

University of Economics and Pedagogy

zohiddinrasulov28@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, national consciousness, sports education, national values, patriotism, socialization, moral education, civic responsibility, teamwork, globalization.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article analyzes the educational functions of sport in the development of youth national consciousness from socio-philosophical and pedagogical perspectives. The study substantiates the role of sports activities in shaping national values, patriotism, civic responsibility, and social engagement among young people. Particular attention is paid to the key educational mechanisms of sport, including moral education, discipline, teamwork, self-control, and social adaptation. The article also discusses the strengthening of national identity through sports culture in the context of globalization, as well as the promotion of national pride and social cohesion among youth. As a result, the paper proposes academic conclusions and practical recommendations aimed at improving sport as an educational institution and ensuring the effective use of its moral and cultural potential.

YOSHLAR MILLIY ONGINI RIVOJLANTIRISHDA SPORTNING TARBIYAVIY FUNKSIYALARI

Zohiddin Usarovich Rasulov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi dotsenti

zohiddinrasulov28@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Yoshlar, milliy ong, sport tarbiyasi, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiylashuv, axloqiy tarbiya, fuqarolik masʼuliyati, jamoaviylik, globallashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar milliy ongini rivojlantirishda sportning tarbiyaviy funksiyalari ijtimoiy-falsafiy va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Sport faoliyatining yoshlar ongida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, fuqarolik masʼuliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda sportning axloqiy tarbiya, intizom, jamoaviylik, oʻz-oʻzini nazorat qilish hamda ijtimoiy adaptatsiya kabi tarbiyaviy mexanizmlari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida sport madaniyati orqali milliy oʻzlikni mustahkamlash, yoshlarda milliy gʻurur va ijtimoiy birdamlikni oshirish masalalari yoritiladi. Maqolada sportni tarbiyaviy institut sifatida takomillashtirish va uning maʼnaviy-maʼrifiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish boʻyicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

**ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ СПОРТА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОГО
САМОСОЗНАНИЯ МОЛОДЁЖИ**

Зоҳиддин Усарович Расулов

Доцент Самаркандского кампуса

Университета экономики и педагогики

zohiddinrasulov28@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, национальное сознание, спортивное воспитание, национальные ценности, патриотизм, социализация, нравственное воспитание, гражданская ответственность, коллективизм, глобализация.

Аннотация: В статье рассматриваются воспитательные функции спорта в развитии национального сознания молодежи с социально-философской и педагогической точек зрения. Обосновывается значение спортивной деятельности в формировании у молодежи национальных ценностей, патриотизма, гражданской ответственности и социальной активности. В исследовании анализируются ключевые воспитательные механизмы спорта, включая нравственное воспитание, дисциплину, коллективизм, самоконтроль и социальную адаптацию. Особое внимание уделяется проблемам

укрепления национальной идентичности через спортивную культуру в условиях глобализации, а также повышению национальной гордости и социальной сплоченности среди молодежи. В статье представлены научные выводы и практические рекомендации, направленные на совершенствование спорта как воспитательного института и эффективное использование его духовно-просветительского потенциала.

Kirish. Har qanday rivojlangan va madaniyatli jamiyat avvalo o'z fuqarolarining farovonligi va salomatligini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Mamlakatning kelajagi va kuchi ko'p jihatdan aynan shunga bog'liqdir. Jamiyat har qanday ijtimoiy o'zgarishlar va taraqqiyot jarayonlarida yangi avlodning rivoji va kamolotini ta'minlash uchun faol harakat qiladi. Buning izlari Sharq falsafasi manbalari va tarixiy hujjatlarda ham aniq ko'rinadi.

Jismonan sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi Sharq allomalari tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Aristoteles, Ibn Sino, Bahouddin Naqshbandiy va Najmiddin Kubro kabi ulug' allomalarning asarlari yosh avlodni to'la kamolga yetkazish va tarbiyalashga katta e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi. Yoshlar esa davlat va millatning kelajagini belgilovchi asosiy omildir. Faqat bilimli, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk farzandlar bilan jamiyat barqaror ravishda rivojlantirilishi mumkin.

Ma'naviy va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash nafaqat milliy, balki umumdavlat ahamiyatga ega masala bo'lib, u ko'pmillatli Vatanimizda yashovchi barcha xalqlar uchun ezgu maqsaddir. Shu nuqtai nazardan, sport jismoniy salomatlik bilan birga, ma'naviy kamolotga erishishda ham muhim vosita hisoblanadi. Sport yoshlarni iroda va qat'iyatga o'rgatadi, maqsad sari intilish, qiyinchiliklarga chidamlilik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, g'alabaga ishonch, iftixor va g'urur tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, xususan, bolalar huquqlarini kafolatlash bo'yicha normativ-huquqiy baza mustahkamlandi. Shu jumladan, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun (1992) o'quv yurtlarida, shahar va viloyatlarda, butun respublikada jismoniy madaniyatni rivojlantirishni umummilliy darajaga ko'tarishga xizmat qildi.

Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, kasb mahoratini oshirish va barkamol avlodni tarbiyalash

imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Ta'lim va ilm-fan sohalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport yoshlar milliy ongi, vatanparvarlik hissi va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tizimdagi yangilanishlar asosida jamiyatning eng asosiy maqsadi — yoshlarning barkamol turmush tarzini ta'minlash mujassam. Yoshlarni jismonan va ma'nan sog'lom tarbiyalash, ularning baxtu saodatini ta'minlash, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan avlodni shakllantirish jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biridir.

Yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning qiymatini to'liq anglash uchun dunyo tajribasini ham ko'zdan kechirish muhimdir. Afsuski, ayrim mamlakatlarda bolalarni o'qitish, ularni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash imkoniyati yetarli emas. Kambag'allik, ocharchilik va turli kasalliklar ko'plab mamlakatlarda yoshlarning sog'lom rivojlanishini cheklaydi. BMT va YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yuz milliondan ortiq maktab yoshidagi bola ta'lim olish imkoniyatidan mahrum.

Shu bois, yoshlar sog'lom, bilimli va e'tiqodli bo'lsa, zamonaviy kasb-hunarlarni egallasa, jamiyatimizning barqaror rivoji uchun yetuk avlod kamol topadi. Shu maqsadda davlatimiz tomonidan "Sog'lom avlod uchun" ordeni va xalqaro jamg'arma tashkil etildi. Sport inshootlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etilib, yoshlar siyosati bo'yicha birinchi qonun 1991-yilda qabul qilindi. Mazkur qonunda yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va iqtidorini rivojlantirish, ularni ma'naviy va jismonan kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Sport nafaqat jismoniy rivojlanish, balki yoshlarning ma'naviy barkamolligida ham muhim omil hisoblanadi. U iroda va qat'iyatni mustahkamlaydi, maqsad sari intilish va qiyinchiliklarga chidamlilikni o'rgatadi, g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor hissini shakllantiradi. Respublikamizda sportni rivojlantirish davlat darajasida qo'llab-quvvatlanib, maktablar, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga, ommaviy sportni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, pedagog murabbiylar, sport jurnalistlari va sport psixologlari tayyorlanmoqda, sportchilarning huquqlari qonun bilan kafolatlangan.

O'quvchi-talabalar orasida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan musobaqalar "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi uch bosqichli turnirlar orqali nafaqat jismoniy, balki

ma'naviy va intellektual salohiyat rivojlantiriladi. Ushbu tadbirlar yoshlar orasida milliy ongi va vatanparvarlik hissinini mustahkamlash, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda tanilgan sportchilarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi sportni yoshlarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun kompleks vosita sifatida o'rganishga, davlat siyosati va huquqiy hujjatlar bilan uyg'unlashtirilgan, amaliy jihatdan samarali mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan. Mazkur yondashuv sportning tarbiviy funksiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularni yoshlar milliy ongi va madaniyatini shakllantirishga tatbiq etish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda O'zbekiston jismoniy tarbiya va sporti oddiy jismoniy mashqlar va maktab o'yinlaridan tortib, zamonaviy olimpiya sport turlariga qadar jadal rivojlanib, katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Sport endi nafaqat shaxsni jismonan rivojlantirish vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishida, shuningdek, davlatning qudratini mustahkamlashda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarida sportning ommaviylashuvi yanada kuchaydi: aholi, xususan, yoshlar orasida sportning turli turlari bilan shug'ullanish darajasi sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 155 stadion, 4700 dan ortiq sport zali, 130 suzish havzasi, 1842 o'q otish tiri va 21 mingdan ortiq sport maydonchalari mavjud bo'lib, ular yoshlarning jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda samarali qo'llanilmoqda. Ushbu muhtasham sport inshootlari yoshlar orasida sportga bo'lgan qiziqish va intizomni kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, mustaqillik davrida qisqa vaqt ichida barcha viloyat va yirik shaharlarda xalqaro standartlarga mos zamonaviy sport inshootlari qurildi. Toshkentdagi "Yunusobod", "Jar", Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand kabi shaharlar sport sog'lomlashtirish markazlari bilan boyitildi. Ushbu infratuzilma nafaqat yoshlarni jismonan rivojlantirish imkoniyatini yaratdi, balki xalqaro miqyosda yirik musobaqalarni o'tkazishga zamin tayyorladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda futbol sporti turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududlarda ko'plab zamonaviy ochiq va yopiq stadionlar barpo etilmoqda, ular jahon andozalariga mos ravishda tashkil etilgan. Ushbu stadionlarda tez-tez xalqaro nufuzli musobaqalar o'tkazilib, yoshlarimizga o'z salohiyatini namoyish etish imkoniyati yaratilmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yoshlari sportning turli turlarida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Jismoniy tarbiya va sportning keng rivojlanishi nafaqat shaxsni sog'lom va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga, balki yoshlar milliy ongi, vatanparvarlik hissi va ijtimoiy

mas'uliyatni shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy sport inshootlari va infratuzilmaning mavjudligi sportning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sport nafaqat jismoniy faoliyatni rivojlantirish, balki yoshlarning ma'naviy barkamolligini shakllantirish, ularni jamoaviy ishlashga o'rgatish, qat'iyat va iroda ko'nikmalarini mustahkamlashda ham muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, sportning davlat siyosatidagi o'rni va uning yoshlar tarbiyasidagi funksiyasi nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham asosli deb hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport yoshlar milliy ongi va barkamol shaxsini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sportning ommaviylashuvi, zamonaviy inshootlar va infratuzilmaning rivojlanishi yoshlarning jismoniy va ma'naviy salomatligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Sport orqali yoshlar irodali, qat'iyatli, jamoaviy ishlashga tayyor va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalanadi, shuningdek, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ulari mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, sport yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash va xalqaro miqyosda raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda ham strategik ahamiyatga ega. Mustahkam huquqiy baza, davlat siyosati va ijtimoiy dasturlar sportni yoshlar tarbiyasida samarali mexanizmga aylantirmoqda.

Natijada, jismoniy tarbiya va sport nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki yoshlarning ma'naviy va ijtimoiy barkamolligi, milliy ongi va vatanparvarlik ruhini rivojlantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, sportni rivojlantirish va uni yoshlar tarbiyasiga integratsiyalash strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat va jamiyat vazifasi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdug'aniyev A. Yoshlar tarbiyasida sportning o'rni. – Toshkent: Fan, 2015. – 128 p.
2. Rasulov B. Jismoniy tarbiya va milliy ongi rivojlanishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 156 p.
3. Qodirov S. Yoshlar va sport: tarbiyaviy omillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 144 p.
4. Karimova L. Milliy qadriyatlar va jismoniy tarbiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017. – 132 p.
5. Tursunov N. Sportning yoshlar milliy ongiga ta'siri. – Toshkent: Yoshlar, 2019. – 120 p.

6. Islomov O. O'zbekiston yoshlari va sportning ijtimoiy ahamiyati. – Toshkent: Oliy ta'lim, 2020. – 168 p.
7. Ahmedov R. Jismoniy tarbiya va ma'naviy kamolot. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2018. – 140 p.
8. Murodov F. Sport va yoshlar: pedagogik tadqiqotlar. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2021. – 152 p.
9. Abdizaitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
10. Ilhom R. Synergetics: A Historical Analysis of the Ideas of Self-Organization //Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 8-8.
11. Usmonov F. The role of music in the formation of human spirituality //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 115-116.
12. Tursunova O. F. Consumer rights and obligations in islamic sources //Current research journal of pedagogics. – 2021. – T. 2. – №. 05. – C. 63-66.
13. Elmuradovich T. J. The spiritual and philosophical legacy of Abdulqadir Bedil: Language, meaning, and human consciousness //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – T. 2. – №. 12. – C. 72-77.